

NABIJON HOSHIMOVNING “TOG‘LIK QIZ” ROMANIDA MAVZU KO‘LAMI

Abdullayev X. D.

Qoraqalpog‘ davlat universiteti

Mavzu – yozuvchi tanlagan hayotiy material yoki shu materialni badiiy voqelikka aylantiradigan estetik idealning ilk moddiylashuvidir. Mavzu keng tushuncha bo‘lib uning asosida ijodkorning badiiy niyati, masalaga yondashuviga qarab syujetni harakatga keltiruvchi muammo yoki muammolar tizimi hosil bo‘ladi. Har qanday badiiy asar muayyan bir tizim bo‘lib, uning markazida g‘oyaviy-tematik mazmun yotadi. Mavzu bu – yaxlit matn bergan narsaning o‘zidir. Mavzudan farqli o‘laroq, muammo voqelikning biron bir hodisasining nominatsiyasi emas, balki shu hayot hodisasi bilan bog‘liq qarama-qarshiliklarni shakllantiruvchi atribut hodisadir.

Romanda ham, bitta mavzu doirasida muallif bitta muammoni emas, balki bir qator, muammolar tizimini qo‘yishi mumkin. Shuning uchun asar mavzusi haqida gap ketganda, avvalo, uning muammolari silsilasi haqida gapirish o‘rinlidir. Asar qanchalik katta bo‘lsa, mavzui qanchalik xilma-xil bo‘lsa, muallif qo‘ygan muammolar doirasi shunchalik keng bo‘ladi. Adabiy tanqidda tarixiy, milliy, ijtimoiy, falsafiy, axloqiy, psixologik muammolar alohida ajratiladi; oraliq turlari ham mumkin: ijtimoiy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-psixologik va boshqalar. Albatta, roman janri nasrning katta shakli bo‘lib, til va uslubning metaforiklashuvi, matn stilistikasining mifologizatsiyalashuvi asosida mazmun va mavzu ko‘lami kengayib, muammolar qatorini hosil qiladi.

Yozuvchi romanida ona va ayolga ehtirom, bolalik, qishloq va yoshlik, yoshlik va sevgi, oila, ota, ota va ona, qismat va taqdir singari masalalar asosiy mavzular bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Bu romandagi voqealar turli-tuman bo‘lsa-da, ularni asosan matn uslubi ya‘ni “mifopoetik talqin” o‘zaro bog‘lab turadi. Yoshlik, ota va ona, taqdir, qismat, taqdir mavzulari voqealar silsilasini o‘zaro bog‘lab turuvchi mavzu xilma-xilligi, bu muallif hayot tajribasiga, ong va idroklash qamrovining kengligiga, davrning odamga ijtimoiy-ma‘naviy muhitning insonga zamon kishisiga qo‘ygan axloqiy-ma‘naviy talablariga mos bo‘lgan ijodiy tirik jarayondir. Qolaversa muallif sobiq tuzum va bugungi istiqbolning tirik guvohidir. Uning romanida ota-bola obrazlari mavjud bo‘lib, shu obraz vositasida taqdir, qismat mavzulari badiiy talqin qilinadi. Romanda qishloq va uning odamlari hayoti tasviri asosiy mavzu bo‘lsa-da, sevgi va taqdir masalasi, orzu-intilishlari yo‘lidagi to‘siqlar asosiy muammo tarzida namoyon bo‘ladi.

“Tog‘lik qiz” romanida tasvir va ifoda yanada oydinlashib borgan. Uslub albatta, metodga nisbatan, tabiatan individual xarakterga ega tushuncha. Nabijon Hoshimov romani uslubining an‘anaviy va mifologik ahamiyat kasb etishi, avvalo uning ijodiy maqsadini, diniy-axloqiy, ijtimoiy-ma‘naviy yondashuvlarini aniqlab beradi. Romanda kelajak sari intilayotgan yoshlar obrazi bosh markazda turadi. Hasan, Husan, Mushtariy, Qahramon va Svetlanalar asar qahramonlaridir. Romandagi Yomon buloq, Shirin buloq, Qo‘sh qoya, Qo‘sh qoya o‘rtasidagi bir tup daraxt, bog‘ga qo‘yilgan monument, echki suti kabi tushunchalar oddiy talqin bo‘lmasdan metaforik ifodalardir.

Asar voqealarining haqqoniyligi va realligini ta‘minlashda, qolaversa yozuvchi badiiy niyatining amalga oshishida dialektik mantiqqa muvofiq tartib berilgan makon va zamon elementlari asosiy mayoq vazifasini bajaradi. Makon va zamon tushunchalari va uning badiiy asardagi funksiyalari xususida jahon adabiyotshunosligida anchagina mantiqli fikr-mulohazalar bildirilgan. Taniqli rus adabiyotshunosi M.Baxtin badiiy asar namunalarni tahlilga tortar ekan, xronotop tushunchasiga quyidagicha ta‘rif beradi: “Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg‘unlikni xronotop, deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmda Eynshteynning nisbiylik nazariyasi negizida qo‘llab kelinadi. Istillohning biz uchun matematikada qo‘llanadigan maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo‘q. Uni biz adabiyotshunoslikka (tom ma‘noda bo‘lmasa ham) istiora o‘laroq qabul qilamiz. Muhimi, bu o‘rinda istillohning zamon va makonni uyg‘un holatda ifodalashidir” [7].

Romandagi obrazlar ham mavzuga va qo‘yilgan muammoga mos personajlardir. Ayniqsa Qahramon ismli obraz:

“Raqibini payt poylayotgan Xasan bir lahza e‘tiborini qizga qaratdi. Mushtariy uni hech qachon ismini aytib chaqirmagandi. Yigit uchun bu o‘zgacha shukuh bag‘ishladi. Ammo bu aldamchi lahza edi. Uddabiron Qahramon raqibining ana shu nozik hislaridan foydalanib ulgurdi va Xasanni dast ko‘tarib yerga qapishtirdi.

– Halol!! – deya xursand qichqirib yubordi mo‘ysafid. – Qiziltoshlik sardor Qahramon yutdi!!” (o‘sha kitob 16-bet).

...

“Ular ko‘chaga chiqib xilvatroq joyga o‘tib bordilar. Qahramon ning odimi askarcha – tez va shaxdam edi.

– To‘xta Qahramon, gaplashib olaylik, iltimos. Ammo yonib turgan Qahramon bu paytda uchun bir gap kam, ikkita gap ortiq edi. U kutilmaganda hujumga o‘tdi. Xasanning basharasiga “Mana senga gaplashish” deb shunday bir zarb tushirdiki, Xasanning ko‘zidan olov chaqnab ketdi. Uni tushunishni istamayotgan Xasanning ham jahli chiqdi. “Sen bilan yaxshilikcha gaplashib olaylik, deya pman!” – deya qichqirdi u. Biroq Qahramon bu gapga ham yaxshigina musht bilan javob qaytardi. “Mana senga! Nomard, iflos!” deya qichqirdi u” (o‘sha kitob 109-bet).

Inson qismatini badiiy talqin etishda poetik ifoda turfaligi muallif konsepsiyasini aniq yoritadi. Hayot hamda xayol qorishiligidagi voqeliklar sirliklik, g‘ayritabiylilik sathini kengaytiradi. Ba‘zan makon-u zamoni mavhum sarhadlar miqyosi majoziy usulda uyushtiriladi. Bunda tabiatdagi ranglar mutanosibligi, ohanglar jarangi, o‘simliklar ifori manzarani tiniqlashtiradi. Asar badiiyatini ta‘minlashda ma‘no serjilo, serqatlamligi poetik yaxlitlikni yuzaga keltiradi. O‘zbek zamonaviy romanchiligida biz poetikaning ana shu mezonlari, vazifalari maromiga yetkazib ado etilganligini ko‘ramiz.

Taniqli yozuvchimiz Nabijon Hoshimov romanlarida taqdir va qismat, ota va bola, ona va oila, bolalik, yoshlik va muhabbat singari mavzular ijod sarhadlarining asosiy mavqeyini belgilaydi. Yozuvchi o‘z asarlarida aql va qalb

muvofigligi, ong va shuur mutanosibligi borasida falsafiy, badiiy qarashlarni ilgari suradi, zamonaviy qahramonning faol turmush tarzini retrospektiv syujet tegrasida yoritadi. Roman personajlari yuksak manzilga erishish yo'lida tarixiy-mifologik makon va zamonlardagi voqelikni o'z ong tafakkurida dinamik harakatga keltirib, yozuvchining badiiy niyatini va g'oyasini ro'yobga chiqaradi.

Roman janrida ham, bitta mavzu doirasida muallif bitta muammoni emas, balki bir qator, muammolar to'plamini qo'yishi mumkin, shuning uchun asar muammolari haqida gapirish odatiy holdir. Asar qanchalik katta bo'lsa, mavzui qanchalik xilma-xil bo'lsa, muallif qo'ygan muammolar doirasi shunchalik keng bo'ladi. Masalan, haqiqiy va soxta vatanparvarlik va qahramonlik, axloqiy tanlov, haqiqiy va soxta go'zallik, shaxsning tarixdagi o'rni, oila muammosi, burch va or-nomus muammolari - bu L.N. Tolstoy "Urush va tinchlik". Adabiy tanqidda tarixiy, milliy, ijtimoiy, falsafiy, axloqiy, psixologik muammolar alohida ajratiladi; oraliq turlari ham mumkin: ijtimoiy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-psixologik va boshqalar.

Muammo adabiy asarda talqin predmetiga aylangan mavzuning mohiyatini hal qilish masalasini ko'taradi. Mavzu badiiy asarda aks etgan hayotning o'zi bo'lsa, muammo asarda aks etgan shu hayot asosida qo'yilgan savoldir. Xuddi shu mavzu turli muammolarni ko'tarish uchun asos bo'lishi mumkin. Muammo asarda qo'yilgan murakkab savol bo'lib, u hal qilingan yoki hal qilinmagan, ammo uning yechimini izlash yo'llarini topish yoki muayyan qaror qabul qilish uchun berilgan imkoniyatdir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev X. Hozirgi o'zbek romanlarida talqin muammosi. Monografiya, "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi, – Toshkent: 2020.
2. Abdullayev X. Epik tafakkurda tasvir va talqin uyg'unligi. Monografiya, "NIF MSH", – Toshkent: 2024.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: 2002.
4. Hoshimov N. Tog'lik qiz. "Ijod press", Toshkent: 2016.
5. Ikromov O. O'zbek romanlarida, ijobiy qahramon muammosi. – Toshkent: 1970.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. "Navoiy universiteti", – Toshkent: 2018.
7. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики – М.; Художественная литература, 1975. – С. 234-235

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy asarda mavzu va muammo tushunchalarining nazariy asoslari hamda ularning o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Xususan, roman janrida mavzu keng qamrovli bo'lib, u asosida muammolar tizimi shakllanishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Nabijon Hoshimovning "Tog'lik qiz" romani misolida yoshlar, oila, ota-ona, taqdir va muhabbat kabi mavzular hamda ularning badiiy talqini ochib beriladi. Asarda mifopoetik uslub, ramziy detallar, xronotop (makon va zamon uyg'unligi) elementlari orqali muallif g'oyasi ifodalangani ko'rsatiladi. Shuningdek, obrazlar tizimi va poetik ifoda vositalari orqali inson qismati, axloqiy tanlov va ijtimoiy-ma'naviy muammolar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: mavzu, muammo, mifopoetika, xronotop, kompozitsiya, obraz, badiiy talqin, qismat/

Annotation. This article explores the theoretical foundations of theme and problem in literary works and their interrelation. It emphasizes that in the novel genre, a broad theme generates a system of interconnected problems. Using Nabijon Hoshimov's novel "Mountain Girl" as an example, the study examines themes such as youth, family, parenthood, destiny, and love, along with their artistic interpretation. The paper highlights the role of mythopoetic style, symbolic details, and the chronotope (unity of time and space) in expressing the author's idea. It also analyzes how character systems and poetic devices reveal human destiny, moral choices, and socio-spiritual issues.

Keywords: theme, problem, mythopoetics, chronotope, composition, character, artistic interpretation/

Аннотация. В данной работе рассматриваются теоретические основы понятий темы и проблемы в художественном произведении, а также их взаимосвязь. Подчеркивается, что в жанре романа широкая тема формирует систему взаимосвязанных проблем. На примере романа Набиждона Хошимова «Горная девушка» анализируются такие темы, как молодежь, семья, отношения родителей и детей, судьба и любовь, а также их художественная интерпретация. Особое внимание уделяется мифопоэтическому стилю, символическим деталям и хронотопу (единству времени и пространства) как средствам выражения авторской идеи. Также раскрывается роль системы образов и поэтических средств в освещении человеческой судьбы, нравственного выбора и социально-духовных проблем.

Ключевые слова: тема, проблема, мифопоэтика, хронотоп, композиция, образ, художественная интерпретация/